



## THE ROLE OF RESERVES IN NATURE PROTECTION

**Ural Safarov**

*associate professor, candidate of pedagogical sciences*

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi*

*Tashkent, Uzbekistan*

**Shakhzod Khamdamov**

*lecturer*

*9th general education school of Muzrobod district, Surkhondaryo region*

*Surkhondaryo, Uzbekistan*

**Kamola Azizkulova**

*Student*

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** State biosphere reserves, order and reserve, "Kohitang mountain range", "Pyg'ambarorol", Turkestan and Zarafshan juniper trees, "Bukhara almond", jiida, walnut, khandan pistachio, "Khanguli of Bukhara", "Bukhara mountain goat or Morkhor", Turkestan lynx, Zulkifl mausoleum, Zarautsoy gorge.

**Abstract:** The role of state reserves is important in preserving and breeding the genetic fund of plants and animals. Forest ecosystems, Turkestan and Zarafshan firs, "Bukhara almond", walnut, walnut, pistachio, "Bukhara Khanguli", "Bukhara mountain goat or Morkhor", information about flora and fauna, such as Turkestan lynx, and its preservation.

**Received:** 26.11.23

**Accepted:** 28.11.23

**Published:** 30.11.23

---

## TABIATNI MUHAFAZA QILISHDA QO'RIQXONALARNING O'RNI

**Ural Safarov**

*dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

**Shaxzod Xamdamov**

*o'qituvchi*

*Surxondaryo viloyati Muzrobod tumani 9-umumta'lim maktabi*

*Surxondaryo, O'zbekiston*

**Kamola Azizqulova**

Talaba

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Toshkent, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Davlat biosfera rezervatlari, buyurtma va qo'riqxonalar, "Ko'hitang tog' tizmasi", "Payg'ambarorol", Turkiston va Zarafshon archalari, "Buxoro bodomi", jiyda, yong'oq, xandon pista, "Buxoro xonguli", "Buxoro tog' echkisi yoki Morxo'r", Turkiston silovsini, Zulkifl maqbarasi, Zarautsoy darasi.

**Annotatsiya:** O'simlik va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda ularni ko'paytirishda davlat qo'riqxonalarining o'rni katta hisoblanadi. Shunday qo'riqxonalardan biri bo'lgan Surxon davlat qo'riqxonasida himoya qilinayotgan to'qay yekotizimlari, Turkiston va Zarafshon archalari, "Buxoro bodomi", jiyda, yong'oq, xandon pista, "Buxoro xonguli", "Buxoro tog' echkisi yoki Morxo'r", Turkiston silovsini kabi o'simlik va hayvonat olami va uni muhafaza qilish ishlari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

**РОЛЬ ЗАПОВЕДНИКОВ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ****Урал Сафаров**

доцент, кандидат педагогических наук

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми

Ташкент, Узбекистан

**Шахзод Хамдамов**

преподаватель

9-я общеобразовательная школа Музробадского района Сурхандарьинской области

Сурхандарья, Узбекистан

**Камола Азизкулова**

Студент

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми

Ташкент, Узбекистан

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Государственные биосферные заповедники, порядок и заповедник, «Хребет Кохитанг», «Пигамбаророл», туркестанский и зарафшанский можжевельник, «бухарский миндаль», джида, грецкий орех, ханданская фисташка, «хангули бухарский», «бухарская гора». козел или Морхор», туркестанская рысь, мавзолей Зулкифль, ущелье Зараутсой

**Аннотация:** В сохранении и воспроизводстве генетического фонда растений и животных важна роль государственных заповедников. Лесные экосистемы, ель туркестанская и зарафшанская, «миндаль бухарский», орех грецкий, орех, фисташка, «хангули бухарский», «козёл бухарский или морхор», сведения о флоре и фауне, например туркестанской рыси, и ее сохранении.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga kiritilgan noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarning turlarini, boshqa tabiiy ob'ektlarni saqlab qolish va qayta tiklashga,

shuningdek, ekologik muhitni yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga ko'maklashadigan davlat biosfera rezervatlari, buyurtma va qo'riqxonalar tashkil etilgan va etilmoqda.

“Tabiiy ob’ektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo’lgan, tipik ekologik tizimlar, o’simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o’rganish uchun mo’ljallangan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo’riqxonalarini hisoblanadi”.

### ASOSIY QISM

“Surxon davlat qo’riqxonasi” - asosan, Surxondarya viloyati Sherobod tumanining shimoli - g’arbiy qismida joylashgandir. Qo’riqxona 2 ta mustaqil maydondan - “Ko’hitang tog’i”ning sharqiy yon bag’ri va “Payg’ambarorol” hududidan iborat. Payg’ambarorol hududi vodiya to’qay yekotizimlarini va “Buxoro bug’usi”ni muhofaza qilish maqsadida 1971-yilda tashkil yetilgan. “Ko’hitang davlat buyurtma” qo’riqxonasi 1986-yilda “Payg’ambarorol” qo’riqxonasi bilan birlashtirilib, “Surxon davlat qo’riqxonasi”ga aylantirildi.

Qo’riqxonaning “Payg’ambarorol” hududi (Amudaryodagi kichik orol - uzunligi 8 km., yeni 5 km.; 3044ga.) o’rmonzor va to’qayzordan iborat. U 1986-yilgacha to’qayzorlarning o’simlik va hayvonot dunyosini tabiiy holida saqlash maqsadida tashkil yetilgan mustaqil qo’riqxona bo’lgan.

Orolda chuchukmiya, yulg’un va galofit o’simliklar o’sadi. To’qayzorda “Buxoro xonguli”, yovvoyi to’ng’iz, qamish mushugi, qushlardan qirg’ovul, burgut, tasqara, qirg’iy, hind jayrasi, sudraluvchilardan cho’l agamasi, toshbaqalar, kaltakesaoar, ilonlar va boshqalar ko’p uchrar yedi.

Payg’ambarorolda XII-XIII asrga oid Zulkifl maqbarasi hozirgacha saqlanib kelinmoqda.

Surxon davlat qo’riqxonasining ikkinchi hududi viloyatning Sherobod tumani hududidagi Ko’hitang tog’yonbag’rida joylashgan va u noyob o’simlik va hayvonot dunyosiga nihoyatda boyligi bilan diqqatga sazovor (1-rasm).



1-rasm. “Surxon davlat qo’riqxonasi” hududi umumiy ko’rinishi

Tabiiy hududning umumiy yer maydoni 23 ming 802 gektar bo'lib, shundan 12 ming 239 gektardan ziyodi yashil boylik bilan burkangan va unda Turkiston va Zarafshon archalari, Turkiston zarangi, Buxoro bodomi, jiyyda, shirin bodom, o'rik, yong'oq, xandon pista, saksovul, butalar, Qo'qon zag'ozasi, Litvinov lolaqizg'aldog'i, rovochi va boshqalar muhafaza qilinib, o'stiriladi va ko'paytiriladi. Qo'riqxonada 900 dan ortiq turdagi o'simlik uchraydi va 41 turdagi o'simlik turi "Qizil kitob"dan joy olgan (2-rasm).



2-rasm. "Surxon davlat qo'riqxonasi" hududi *Tulipa ingens* T.M.Hoog Gard. Ulug'vor lola.

Qo'riqxonada hozirgacha umurtqali hayvonlardan - 26 turdagi sut emizuvchilar; 136 tur qushlar; 23 tur sudralib yuruvchilar; 2 tur ham suvda, ham quruqlikda yashovchi; 5 tur baliqlar yashashi aniqlangan. Ulardan O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan 26 turdagi sudralib yuruvchilar, 18 turdagi noyob hayvonlar va 136 turdagi qushlar uchraydi. Tog' va tog' yon bag'irlarida, "Buxoro xonguli", "Buxoro tog' echkisi yoki Morxo'r", Turkiston silovsini, Osiyo mufloni, bo'ri, tulki, quyon, bo'rsiq, har xil zaharli ilonlar va qushlarning 130 ga yaqin turi uchraydi.

Shuningdek, Ayni kunlarda qo'riqxonada xodimlari betakror va o'ziga xos o'simlik hamda hayvonot olamini tashqi tajovuzlardan himoya qilib, rovoch va boshqa noyob o'simliklar, turli jonivor hamda qushlar kushandalariga qarshi kurash olib bormoqda.

Keyingi yillarda Surxon davlat qo'riqxonasida olib borilgan muhofaza choralari tufayli Buxoro tog' echkisi yoki morxo'rlarning soni asta-sekin ko'payib bormoqda.

Surxon davlat qo'riqxonasida noyob hayvonlar o'rnatilgan "fotoqopqon" nishoniga tushgan. Ulardan, "Buxoro xonguli", Buxoro tog' echkisi yoki morxo'r va uning uluqchalari, kaklik va bosyqalar suratga olingan (3- rasm).





**3-rasm.** “Surxon davlat qo‘riqxonasi”, Buxoro tog‘ echkisi

Surxon davlat qo‘riqxonasi hududining chegarasida neolit davri odamlarining qoyalarda ov manzaralari tasvirlangan Zarautsoy darasi mavjud. Ushbu petrogliflarda qadimgi odamlarning hayvonlarini ovlash manzaralari tasvirlangan bo‘lib, uning yoshi 15-20 ming yilga teng.

Har yili Surxon davlat qo‘riqxonasida “5 iyun - Butunjahon atrof-muhitni muxofaza qilish kuni” munosabati bilan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi viloyat vakillari, TerDU professor o‘qituvchilari, Surxon Davlat qo‘riqxonasi jamoasi media-tur tashkil etiladi. 2022 yil 1 iyun kuni Sherobod tumanidagi Surxon davlat qo‘riqxonasining Shalqon bo‘limida “Barkamol avlod” bolalar maktabi o‘quvchilari uchun navbatdagi media-tur tashkil etildi (4-rasm).



**4-rasm.** Surxon davlat qo‘riqxonasida media-turda o‘quvchilarga qo‘riqxona to‘g‘risida qo‘riqxona mas’ullari tomonidan ma’lumotlar berilmoqda

## XULOSA

Hisor tog‘lari vatanimizning eng baland tog‘lari bo‘lish bilan birga, boshqa tog‘larda deyarli kuzatilmaydigan doimiy muzliklari, mahobatli daralari, eng katta karst g‘orlari, o‘ziga xos paleontologik yodgorliklari, endemik darajasi yuqori bo‘lgan flora va faunasi borligi bilan ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, hududdagi tarixiy obidalar (g‘orlar va o‘ziga xos paleontologik yodgorliklari) ni ham avaylab asrash, ularga borish yo‘llarini ham ta‘mirlash, shu sababdan viloyatda ekoturizm (sayr-sayohat) ni rivojlantirish ham eng ustivordir.

Yuqoridagi keltirilgan ma‘lumotlardan ishonch hosil qilamizki, bu jarayon:

- o‘quvchilarda fanga bo‘lgan tafakkurini boyitib borib, geografiya faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishadi va ular qalbida tabiatga bo‘lgan mehr o‘yg‘otishni shakllantiradi.
- o‘quvchilar dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida yangi-yangi geografik bilim va manbalardan muntazam xabardor bo‘lib borishadi.

Yangi geografik ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish mashg‘ulotlar davomida egallanayotgan bilimlarni yanada kengaytiradi, qiziqishlari natijasida ma‘lumotlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, ularni tahlil qilishlariga, o‘z bilimlarini baholashlariga, to‘g‘ri xulosalar qilishni o‘rgatishga qaratilganligi bilan quvonchlidir.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi 710-II-sonli Qonuni.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi, -T.: O‘qituvchi, 1994.-209 b.
2. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. T.: “O‘qituvchi”.1996.-264 b.
3. Safarov U.X. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Uslubiy qo‘llanma. T.: TDPU., “ZUXRA BARAKA BEZNIS” bosmaxonasi. 2022 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” I va II jild (hayvonot olami) ”Chinor ENK”. Toshkent. 2009.
5. Internet saytlari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)